

ANBAR OTIN HAYOTI VA IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Muhammadjonova Dilshoda Zikriyoxon qizi

Akramova Muxlisaxon Ikromjon qizi

Sarimsoqova Odinaxon Abdurashid qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Anbar Otin ijodining o'rganilishi, shoiraning hayoti va lirikasi, uning asarlarida ijtimoiy-siyosiy masalalarning ko'tarilishi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: milliy ong, taraqqiyot, demokratik shoira, sharq mumtoz adabiyoti, badiiyat, tog'ri so'zlik, munofiqlik.

Ayol ijodkorlar orasida Anbar Otin Nodiradan keying davrning yorqin adabiy siymosidir. Uning asarlarida milliy ongni uyg'otish, jamiyatni tarqqiyotga undash, o'z xalqini boshqa davlatlar bilan solishtirgan holda ilg'or davlatlarga tenglashgan da'vat g'oyalari yoniq so'z bilan tashviq qilingan.



1-rasm. Anbar Otin

Anbar otinning hayoti va ijodiga bo'lgan e'tibor o'zbek adabiyotida 1960-yillardan boshlandi. Shoira ijodini o'rganish, to'plash, nashr etish ishlari bilan professor A.Qayumov, F.Husayinovlar shug'ullanganlar. Ularning say harakatlari bilan 1963-yilda shoira she'rlari topildi va majmua holiga keltirilib, "Anbar Otin. She'rlar" nomi bilan chop etildi. 1966-yilda Arab alifbosiga bag'ishlangan "Yakka baytlar"i topildi. 1977-yilda esa adabiyotshunos M.Qodirova uning 17 she'rini o'zbekcha tarjimasi bilan nashr ettirdi. Shoira 1870-yilda qo'qonda buzrukho'ja mahallasida tug'ildi. Uning otasi asli Marg'ilondan bo'lib, shoira tug'ulmasdan avval taqdir taqozosiga ko'ra Qo'qonga ko'chib kelgan.

Oilasi haqida shoiraning o'zi shunday yozadi:

Otam – Farmonquli Marg'iloniy,

Onam – Ashurbibi Qo'qoniy.

Alar belbog'chi-bozchi erdi kasbi,

Hamisha makkayidin erdi noni.

Anbar otin taniqli shoira Dilshodi Barno qo'lida ta'lim olgan. Ustoz o'z shogirdi haqida mana bunday iliq va umitli so'zlarni aytgan edi: "Anbar Otin bug'doyrang, sunbul soch, ohu-ko'z, oy-yuzli ahloqi va odobi juda go'zaldir. Bu 8 yashar qizchaligiga qaramasdan Hazrati Navoiy nazmiyotlarini o'rganishga behad qiziqadi. Umidim borki, bu qizcha katta shoira bo'lg'usi".

Anbar Otinning ijodiy merosi deyarli she'riy asarlardan iborat. U o'z she'rlarida vatanga bo'lgan muhabbatini sodda, samimiy izhor qiladi, u vatanni ikkinchi ona sifatida talqin qiladi:


Odam ersang ma'ni bil dona-dona,

Vatan erur sanga ikkinchi ona.

Anbar Otin o'zbek xalqparvar shoirasi. Kambag'al kosib oilasida tug'ilgan. Onasi Ashurbibi qo'qonlik bir kosibning qizi bo'lgan. Anbar Otin yetti yoshidan o'z mahallasidagi Dilshod otinning maktabida ta'lim oladi. Dilshod otin o'z davrining bilimdon, shoirtabiat, dono ayollaridan bo'lib, "Barno" taxallusi bilan she'rlar ham

yozgan. Dastlab kichik she'rlar yoza boshlagan Anbar ijodda ko'proq Uvaysiyga ergashadi, uning g'azallarini diqqat bilan o'rganadi, muxammaslar bog'laydi. Ayniqsa Navoiyni birinchi ustoz hisoblaydi. Uning "Mushoira" nomli risola yozganligi haqida og'zaki ma'lumotlar uchraydi. Anbar otin haqgo'y va oqilligi bilan mahalla ayollari o'rtasida obro' qozonib, otin, otincha nomini olgan. U boyvachchalarga qarshi hajviy she'rlar yozganligi sababli boyvachchalar tomonidan kaltaklanadi. Natijada shoironing ikki oyog'i sinadi. Shundan so'ng uning sog'lig'yi yomonlashib, o'pkak asaliga duchor bo'ladi. Biroq u umidsizlikka tushmaydi. Anbar otin haqiqatni aytishdan cho'chimaydi. U xalqni jaholatda tutuvchilarni, riyokorlarni qattiq tanqid qiladi: Tariqcha ilmi yo'q "qozi" kalonman-muftiman" deydur, Abu Sino,

Ulugbekdin ko'z yumg'onlarga o't tushsun.



2-rasm. "Risolayi falsafiy siyohon"dan ("Qoralar falsafasi" risolasidan) parcha

Anbar otinning boshqa g'azallarida ham xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, yuksak insoniylik g'oyalari targ'ib etilgan. Uning "Qoralar falsafasi" asari kirish va to'rt fasl (qism)dan iborat. U kambag'al xalq hayotiga achinadi, zamonasidagi irqiy

kamsitishlarga o'z noro-ziligini ifoda etadi. Har bir mushohadaning oxirida bir she'r keltirilib, qissadan hissa chiqariladi. U kelajakka umidvor boqadi, ayollarni o'z haququqi uchun kurashishga chaqiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Anbar otin she'rlarining asosiy qismi ijtimoiy siyosiy masalalar yuzasidan fikr va mulohazalar, munozaralar, tanqidiy qarashlardan iborat bo'lgan asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avaz O'tar o'g'li. "Devon". Toshkent 1976 y.
2. Y.Yusupov "Avaz" Toshkent 1954 y.
3. "Ayyomiy" Saylanma Toshkent 1984 y.
4. B.Qosimov "Izlay izlay topganim..." Toshkent 1983 y.
5. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
6. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.
7. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.
8. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
9. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тadbirkorликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.
10. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
11. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тadbirkorликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.

12. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – С. 216-222.

13. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – С. 15-17.

14. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128.

15. MADAMINJONOVNA M. M. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА YO 'NALTIRIB O 'QITISHNING ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Nova. Pub. – 2022. – С. 1-128.

16. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O 'QUVCHILARNING ТАДБИРКОРЛИК КО 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415.

17. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O 'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o 'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – С. 78-83.

18. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – С. 321-324.

19. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – С. 224-228.

20. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – С. 264-269.